

YANGI ZAMONAVIY TAHDID: FISHING JINOYATLARI VA SUN'IY INTELLEKT

Yuldasheva Munisa Raxmanovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda ommalashib borayotgan kiberjinoiatning fishing turi, uning ilk bor kelib chiqishi, turlari, sodir etilish usullari haqida soʻz boradi. Ushbu kiberjinoiatni sodir etilishi hamda unga chuv tushish holatlari sunʼiy intellekt tomonidan yanada osonlashib bormoqda. Zamon rivojlanar ekan, jinoyatlarni sodir qilish usullari va holatlari ham rivojlanib boraveradi. Maqola yakunida yuqoridagi jihatlar oʻrganib chiqilib ularni hal qilish uchun tavsiya hamda takliflar ishlab chiqildi.*

Kalit soʻzlar: *fishing, vishing, smishing, firibgarlik, sunʼiy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, foydalanuvchi, hisob, pul mablagʻlari, raqamli savodxonlik, raqamli dalillar.*

Fishing bugungi kunda fosh etilishi murakkab boʻlgan kiberjinoiatning bir turidir. Fishing – firibgarlikning bir koʻrinishi boʻlib, bunda foydalanuvchilarning turli maʼlumotlari, asosan parollar, bank kartasi maʼlumotlari kabilarni qoʻlga kiritish maqsad qilib qoʻyilgan. Firibgarlar turli viruslar, zararli reklama va toʻlov dasturlarini foydalanuvchini aldagan holda uning mobil qurilmasiga ulashga erishadi hamda uning maʼlumotlarini qoʻlga kiritadi. Ilk fishing atamasi 1994-yilda ishlatilgan. Fishing bir nechta usullar orqali amalga oshiriladi. Quyidagilar eng koʻp sodir etiladigan fishing usullaridir: telefon qoʻngʻirogʻi orqali amalga oshiriladigan fishing– vishing; SMS xabar orqali amalga oshiriladigan fishing – smishing; elektron pochta orqali firma ichidagi maʼlum bir shaxs yoki guruhni nishonga olish - spir-fishing; rahbarlar, boshqaruv aʼzolari, mansabdor shaxslarga qaratilgan fishing – veyling fishingi va boshqalar. Firibgarlar fishing orqali foydalanuvchiga oʻzini biror bir tashkilot yoki organning mansabdor shaxsi sifatida namoyon etadi. Misol sifatida, ijtimoiy tarmoqlarda millionerning fuqarolarga pul mablagʻlari tarqatayotganligi haqida xabarlar tarqatilib mablagʻlarni olish uchun fuqarolar berilgan havolaga oʻtishlari soʻralgan. Havolaga oʻtgan foydalanuvchilarning mobil qurilmalari firibgarlar tomonidan egallab olingan hamda ularning maʼlumotlari qoʻlga kiritilib shaxsga doir maʼlumotlaridan foydalangan holda foydalanuvchilar nomiga kreditlar olingan. Yana bir misol, xuddi shunday ijtimoiy

tarmoqlarda prezident tomonidan barcha farzandli oilalarga bir martalik yordam puli berilayotgani va keltirilgan havola orqali pul mablag'larini olishlari mumkinligi haqidagi turli xildagi yolg'on ma'lumotlar tarqalishi natijasida unga chuv tushganlar soni ortdi. Sun'iy intellekt vaqt o'tgani sayin bizning hayotimizda o'z o'rniga ega bo'lib borayotgani shubhasiz. Sun'iy intellekt texnologiyalari, bu jinoyatlarni yanada ishonchli va xavfli shakllarda amalga oshirishda ham ishlatilmoqda. Afsuski, sun'iy intellektdan insonlarning noto'g'ri foydalanishi boshqa shaxslarning huquqlarini buzilishiga olib kelmoqda. Fishing xatlarini yozishda sun'iy intellektdan foydalanish oqibatida insonlarning firibgarlikka uchrashi soni ortib bormoqda. Bunga asosiy sabab sun'iy intellektning mazkur xabarlarini yozishda ishonarli, inson tomonidan yozilgandek bo'lganidir. Masalan, firibgar tomonidan e-mailingizga "Hisobingizda muammo aniqlandi, iltimos xavfsizligingizni ta'minlash uchun ushbu havolani bosing" degan xat yuboriladi. Texnologiyaning til modeli tufayli ushbu xabar bank xodimi tomonidan yozilgandek ko'rinadi. Shuningdek, sun'iy intellekt ovoz va suratni soxtalashtirishda ham juda keng foydalanilmoqda. Firibgarlar sun'iy intellektdan foydalangan holda mansabdor shaxslarning tashqi ko'rinishini, ovozini soxtalashtirish orqali fishing jinoyatini sodir qilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda eng ko'p texnologiya oqibatida sodir etilgan fishing jinoyatiga misol sifatida, rahbar tomonidan o'z hisobchisiga go'yoki ma'lum miqdordagi pulni kerakli hisobga o'tkazib berishini so'rashidir. Aslida esa bu jinoyatni sun'iy intellektdan foydalangan holda firibgarlar amalga oshirgani keyinchalik ma'lum bo'ladi. Yana bir misolni olaylik. Sun'iy intellektdan foydalangan holda shaxslarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, kimlar bilan suhbatlashishidan kelib chiqib, ish joyidagi rahbar yoki o'qish joyidagi ustozlar nomidan foydalanib, ularga pul mablag'lari kerak bo'lib qolganligi haqidagi xat yuboriladi. Foydalanuvchi esa bunga ishonib yuborilgan kartaga pul mablag'larini tashlab beradi va firibgarlarning yana bir qurboniga aylanadi.

Aytib o'tilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki bugungi kunda fishing jinoyati sun'iy intellekt tufayli yanada avj olmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik kodeksi hamda Jinoyat kodekslarida jinoyatlar uchun jazo choralari keltirilgan bo'lsa-da, biroq ularni oldini olish samaraliroqdir. Bu kabi jinoyatlarga qarshi kurashish, avvalo, fuqarolarda raqamli savodxonlik darajasini yuksaltirish, qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini maxsus tayyorgarliklardan o'tkazish, kiber jinoyatlarni fosh etishda raqamli dalillarni to'plash hamda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, kiber huquq bo'yicha rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikni amalga oshirish, ulardagi yangiliklarni O'zbekistonda ham sinovdan o'tkazish lozim ekanligini ko'rsatadi. Bu kabi firibgarlar tuzog'iga chuv

tushmaslikning asosiy talabi – ogohlikdir. Unutmang, vaqt o'tsa ham, bir qoida hech qachon o'zgarmaydi: Ogohlik – davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi <https://lex.uz/docs/-97664>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/docs/-111453>
3. Manba: <https://sudex.uz/?p=6082>